

TIL, MILLAT VA MADANIYAT MUNOSABATI

Jo‘rayeva Laylo Jiyanqulovna

BuxDU O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasи 70230101-

Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxasisligi II bosqich magistranti

Annotatsiya: ushbu maqlada til, millat va madaniyat tushunchalariga ta’rif beriladi, ularning funksiyalari yoritiladi hamda bu uch tushunchaning o‘zaro bog’liqligi masalasi ochib beriladi.

Annotation: in this article the concept of language, nation and culture are clarified, their functions are explained in addition to that the connection of these notions are elucidated.

Kalit so’zlar: til, millat, etnos, madaniyat, badaviy, sahroiy, madaniylik.

Biz dastlab til haqida fikr yuritar ekanmiz tilga turli nuqtayi nazardan berilgan ta’riflar ichida shak-shubhasiz til jamiyatning jamiyat a’zolarining eng muhim va eng asosiy aloqa vositasidir, qurolidir degan ta’rif yetakchilik qiladi. Bundan ko‘rinadiki, til ijtimoiy hodisa bo’lib, jamiyat a’zolarining barchasi uchun birdek xizmat qiladi. Bu esa til va millatning o‘zaro bir-biri bilan chambarchas bog’liq ekanligini namoyon qiladi. Shunday ekan tilga quyidagicha ta’rif berish mumkin:

Til – madaniyatning ko‘zgusi bo’lib, unda nafaqat insonni o‘rab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, balki xalqning ijtimoiy o‘zini anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, , hayot tarzi, ananalari, urf-odatlari, axloqi, qadriyatlar yig‘indisi va dunyoqarashi aks etadi. . Bizning milliy madaniyatimiz, urf-odatlarimiz yaqqol aks ettirilgan asar bu O’.Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidir. Shu asarda “Ermon buvaning tilagi” nomli bir hikoya bor. Shu hikoyada saxiy, tanti xalqimizning ikki vakli keltirilgan bo’lib, biri -Ermon buva va ikkinchisi uning xotini Habiba buvidir. Hikoyada aytilishicha tangrim ularga ko‘p farzand ato etgan, ammo hammasi “chilla”dan chiqishi bilan vafot etgan ekan. Ermon buva oltmishta kirganida qodir egam ularga yana bir farzand ato etgan ekan. Uning otini Oltmishtoy deb qo‘yishgan. Buning sababi shuki, u Ermon buva oltmisht yoshga to‘lganida tug‘ilgani ekan. Yurtimizga ham urush shamoli esgach Ermon buvaning o‘g‘li ham urushga ketadi. Shunda ular o‘g‘liga “Non tishlatib” farzandini urushga uzatadi. Ushbu hikoyadagi “chilla davri” hamda “non tishlatish”, raqamlar bilan bog’liq ism qo‘yish odati ham “Oltmishtoy” kabilar bizning milliy urf-odatlarimiz bo’lib, boshqa xalqlarda bo‘lmagan madaniyatimiz sanaladi.

Til-madaniyat xazinasi, sandig‘i , majmuyidir. U leksika, grammatika, iboralar, maqol, va matallar, folklor, badiiy va ilmiy adabiyot, og‘zaki va yozma nutqda madaniy qadriyatlarni saqlab keladi.

Til-madaniyat tashuvchisi bo’lib, u ajdoddlardan avlodlarga miliy madaniyat xazinasini, meros qilib qoldiradi. Yosh avlod ona tili barobarida ajdodlarning boy madaniy tajribasini o‘rganadi ham o‘zlashtiradi. Bu fikrimizning isboti sifatida biz tengsiz yozuvchi O’.Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidagi “Kechani unutmagan, bugunni qadrlaydi”


hikoyasini keltiramiz: “Bugun mакtabda о‘qiyotgan boladan Navro‘z qanaqa bayram=, deb so‘rasangiz , bu-eng chirolyi, eng shodiyona bayram ekanini, uyida ko‘k somsa, mahallada sumalak pishirilgani, ko‘cha va maydonlarda sayllar bo‘lganini biyronlik bilan aytib beradi. Bir vaqtlar avval Navro‘z taqiqlanga edi desangiz hayron qoladi...” Ushbu parcha orqali o‘quvchi bizning milliy madaniyatimiz haqida ma‘lumotga ega bo‘ladi. Navro‘z bayramida sumalak pishirilib, sayllar o‘tkazish bu faqat bizning xalqimizga xos urf-odat sanaladi. Bu boshqa xalqlarda bo‘lmagan tengsiz madaniyatimiz desak ham bo‘ladi.

Til-madaniyatning quroli, vositasidir. U xalq madaniyati vositasidasida inson shaxsiyatini, til sohibini shakllantiradi. Xalqlarga o‘z tarixi haqida ma‘lumotga ega bo‘lish imkonini beradi. M:”... Ellik besh yoshlardagi salobatli kampir sidirg‘a oq atlas ko‘ylagini shitirlatib darsxonaga kirib kelayotganida , Bobur darhol o‘rnidan turib buvisiga salom berdi.” Ushbu parcha orqali biz tariximizda ayollarimiz atlas ko‘ylaklar kiygani va u bizning milliy matomiz ekanini bilish barobarida, hattoki shahzoda bo’lsa ham Bobur Mirzo yoshi ulug’ buvisi kelgan paytda o‘tirgan joyidan turib, salom berib, qo‘lini ko‘ksiga qo‘yishi; bu ham bizning o‘zbeklarga xos bo‘lgan bir madaniyat sanaladi.

Agar tilga uning strukturasi, vazifalari va uni o‘zlashtirish jihatdan qaraladigan bo’lsa, u holda ijtimoiy qatlam yoki madaniyatning komponenti til orqali xabar qilinadigan qandaydir madaniy informatsiya emas. U tilning barcha sathlariga tegishli bo‘lgan tilga xos ajralmas xususiyatidir.

Til- kishilar oqimini xalqqa aylantiradigan , mazkur nutq jamoasining o‘zini-o‘zi anglashi, madaniyati, an’analarini saqlashi va ularni meros qilishi orqali millatni shakllantiradigan kuchli ijtimoiy vositadir.

“Til madaniyatning milliy komponentlari orasida birinchi o‘rinda turadi. Til birinchi navbatda, madaniyatga kishilik jamiyatining ham muloqot vositasi, ham ushbu muloqotni uzib qo‘yuvchi vosita bo‘lishiga yordam beradi. Til-uning sohiblarini muayyan jamoaga tegishli ekanini ko‘rsatadi. Xalqning o‘ziga xos asosiy xususiyati bo‘lgan tilga “ichki” va “tashqi” jihatdan yondashish mumkin. Tilga ichki jihatdan yondashilganda , u etnik integratsiyaning bosh omili sifatida namoyon bo’lsa, “Tashqi” jihatdan yondashilganda , u xalqning etnik farqlarini ko‘rsatadi. Bu ikki qarama-qarshi funksiyani o‘zida dialektik birlashtirgan til bir tomondan xalqning o‘z-o‘zini saqlash vositasi, ikkinchi tomondan uni “o‘ziniki” va” begona” ga ajratish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.



Til haqidagi ta'riflardan to'xtalib MILLAT tushunchasi haqida fikr yuritar ekanmiz, millat bu uzoq davom etgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy jarayonda , aniq hududiy doirada, til va o'zlikni anglash birligi asosida shakllangan xalq etnik tarixining eng yuksak cho'qqisi, o'ziga xos madaniyat, ong va mentalitet zaminida tarkib topgan ijtimoiy birlik shakli. Millat kishilarning jips tarixiy birligi, umumiqtisodiy turmush, til, hudud birligi, madaniyat, ong, ruhiyat uyg'unligi va mushtarakligi demakdir. Ungacha ijtimoiy taraqqiyotning etnos(xalq) shakli ham mavjud bo'lib, xalq atamasi tor va keng ma'noda ishlaatiladi. Masalan, keng ma'noda : o'zbek xalqi, tojik xalqi va boshq.

Millatni til,hudud va etnomadaniy jihatdan birlashtiruvchi omillardan biri iqtisodiy negizdir. Millatning iqtisodiy-xo'jalik birligi asosida til va hudud hamda

etnomadaniy birlik paydo bo'ladi. Millatning iqtisodiy va siyosiy bilashishi elatlarning yozma adabiy tili va xalq og'zaki tilining sheva va lajhalarining yaqinlashishi asosida yagona milliy adabiy tilning paydo bo'lishiga olib keladi. SHevalar o'rnini milliy til egallaydi. Uning davlat tili maqomi darajasiga ko'tarilishi MILLAT nomi bilan atalgan davlatning mustaqillik belgilardan nishonadir. Millat-mustaqil davlat belgisi. Uning mustahkam zhami -davlat iqtisodiy siyosatining barqarorligi Millatning shakllanish darajasiga va fuqarolarning o'zligini anglash darajasiga bog'liq. Bundan o'zbek millati istisno emas.

Madaniyat- jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatları tarixiy taraqqiyotining muayyaan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida , shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi. "Madaniyat" tushunchasi muayyan tarixiy davr (antik madaniyat), konkret jamiyat, elat va millat (o'zbek madaniyat),

shuningdek, inson faoliyati yoki turmushning o'ziga xos sohalari (masalan, mehnat madaniyati, badiiy madaniyat, turmush madaniyati)ni izohlash uchun qo'llaniladi. Tor ma'noda "madaniyat" termini kishilarning faqat ma'naviy hayoti sohasiga ishlatiladi.

"Madaniyat" arabcha madina (shahar) so'zidan kelib chiqqan. Arablar kishilar hayotini ikki turga: birini *badaviy* yoki *sahroiy turmush*; ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar. Badaviylik-ko'chmanchi holda dashtu sahrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik -shaharda o'troq holda yashab, o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lgan xalqlarga nisbatan ishlatilgan.

O'rta asr madaniyatining buyuk namoyondalari Abu Ali ibn Sino, Beruniy va boshqalar shahar turmush tarzini jamoaning yetuklik shakli sifatida talqin qilganlar. Mas, Forobiy fikricha, har bir inson o'z tabiatiga ko'ra , "oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun intiladi", bunday yetuklikka faqat shahar jamoasi orqaligina erishiladi. Uning ta'kidlashicha, "madaniy jamiyat va madaniya shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladiki , bu mamlakatda har biro dam kasb-hunarda ozod, hamma babbaravardir, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosи bilan ozod yashaydilar".

Alisher Navoiy esa o'z asarlarida madaniyat masalasini ijtimoiy va axloqiy hodisalar bilan o'zaro bog'liqlikda , deb biladi. Insonning madaniy ma'naviy qiyofaga ega bo'lishi faqatgina adolatli jamiyatdagina amalga oshadi deb hisoblaydi:

Gar yo'qtur adab, ne sud oltun unidin

Elning adabi xushroq erur oltunidin

Keyingi davr mutafakkirlari, ayniqsa, Turkiston ma'rifatparvarlik harakati vakillari madaniyat tushunchasini xalqni savodli, ilmli, ma'rifatli qilish g'oyasi bilan birlashtirdilar. Ular shaxs,millat, davlat va jamiyatning madaniylik darajasini shaxs va xalqning o'z-o'zini va milliy o'zligini anglashda, deb bildilar.

O'zbek tilida madaniyat so'zi (arab.-sivilizatsiya) quyidagi ma'nolarda qo'llaniladi:
1)jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy,ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari; 2)biror ijtimoiy guruh,sinf yoki xalqning ma'lum davrda qo'lga kiritgan shunday yutuqlari; 3)o'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik, ma'rifat; 4)madaniyatli shaxs talablariga javob beruvchi sharoit; 5) qishloq xo'jaligida (o'simlik yoki ekinning turlarini) yetkazish, o'stirish, yetishtirish.

Yevropada "madaniyat" deyilganda, dastlab insonning tabiatga ko'rsatadigan maqsadga muvofiq ta'siri, shuningdek, insonga ta'lim-tarbiya berish tushunilgan (lot.cultura-yerni ishslash, parvarishlash; tarbiya, rivojlanish, hurmatlash, ehtirom; ruschadagi "kultura" so'zi ham shundan olingan).

Til va madaniyatning o'xshash tomonlari shundaki, ikkovi ham yakka shaxsga emas umumga, xalqqa tegishli hodisadir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, til, millat va madaniyat tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Til borki, millat bor, millat borki madaniyat bor. Millat qanchalik yuksaklikka erishsa madaniyat ham yanada yuqori pog'onaga ko'tariladi. O'z tilini unutmagan uni ko'klarga ko'targan millatning kelajagi porloqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.R.Rasulov.Umumiy tilshunoslik.-Toshkent-2010.-171-178b.
- 2.Sh.Usmanova .Lingvokulturologiya.-Toshkent-2019.-6-48b.
- 3.O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 5-jild.-Toshkent-2003.-372-373b'.